

Davlat statistika organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisobot ma’lumotlarini birlamchi statistika tahlilini o‘tkazish tartibi

*Mazkur Tartibga Davlat statistika
qo‘mitasining 2022- yil 17- maydagi 31– son buyrug‘i
bilan o‘zgartirish kiritilgan*

Ushbu Tartib O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq statistika hisobotlari (keyingi o‘rinlarda hisobotlar deb ataladi) bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan elektron ko‘rinishda taqdim etiladigan hisobotlar ma’lumotlarini birlamchi statistik tahlilini o‘tkazish mexanizmini belgilaydi.

Tartib xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisobotlaridagi xatoliklar va nomuvofiqliklarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi hamda davlat statistika organlari tomonidan hisobotlarni qabul qilish jarayonida, xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan o‘zaro hamkorlikning boshqa holatlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun majburiy ahamiyatga ega emas.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Umume’tirof etilgan xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga (BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari, Yevropa Ittifoqining yevropa statistikasi normalari Kodeksi) muvofiq, statistika kuzatuv sifatiga asosiy talablardan biri statistika ma’lumotlarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlashdan iborat.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlardan olingan statistika ma’lumotlarining, oraliq hisob-kitoblar va tarqatiladigan yig‘ma ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligini ta’minlash uchun, ularning to‘g‘riligi o‘rganilishi kerak, ya’ni ularning birlamchi statistika tahlilini amalga oshirish kerak.

2. Statistika ma’lumotlarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlash maqsadida davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

olinayotgan statistika ma’lumotlarining to‘liqligi, xolisligi va ishonchliligini ekspertizadan o‘tkazish;

statistika ma'lumotlarida qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish hamda jamlanma davlat statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish.

3. Olinadigan statistika ma'lumotlariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan statistika dasturiga muvofiq yig'iladigan, statistika ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar kiradi.

4. statistika ma'lumotlari quyidagi yo'llar orqali olinishi mumkin:

statistika hisobotlarini yig'ish;

tanlanma monografik va boshqa kuzatuvlar, shu jumladan uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar kuzatuvlarini o'tkazish;

ro'yxatga olishlar, bir martalik hisoblar, so'rovlar o'tkazish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida, asosan ma'muriy maqsadlarda, shakllantirilgan ma'muriy ma'lumotlardan foydalanish.

5. Statistika hisoboti – bu belgilangan tartibda tasdiqlangan va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan o'zlarining birlamchi hisob va buxgalteriya hujjatlarini umumlashtirish asosida to'ldiriladigan statistika kuzatuvi shakli bo'lib, u ko'rsatkichlarning nomini, ma'lumotlarni kiritish uchun joy, tashkilot rekvizitlarini va hisobotni to'ldirish uchun mas'ul mansabdor shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

6. Statistika hisobotlarini Davlat statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan ro'yxatga ko'ra yuridik shaxslar, zarur hollarda (hududlar yoki faoliyat turlari kesimida batafsil ma'lumotlarni tayyorlashda) yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari taqdim etadilar.

7. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mansabdor shaxslariga, davlat statistika organlariga statistika hisobotlarini topshirishdan bosh tortganlik yoki taqdim etmaslik, yoki uni tegishli shaklning manzil qismida ko'rsatilgan muddatni o'tkazgan holda taqdim etganlik, shuningdek ishonchsiz ma'lumotlarni taqdim etish, qo'shib yozish, ko'rsatkichlarni ataylab pasaytirib ko'rsatish, statistika hisobotining boshqa buzilishlari uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlik belgilangan.

8. Davlat statistika organlari statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy jazo choralarini qo'llash huquqiga ega.

9. Hisobot shakllari bo'yicha hisobot ma'lumotlarini yig'ish tartibi Davlat statistika qo'mitasining 2021-yil 16-iyundagi 9-mb-son qarori (ro'yxat raqami 3312, 2021 y. 16.07.) bilan tasdiqlangan "Statistika hisobotini

elektron shaklda taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom"da belgilab qo'yilgan.

2-bob. Hisobot ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlil qilish

10. Xo'jalik yurituvchi subyektlardan olinadigan hisobot ma'lumotlarining birlamchi statistika tahliliga quyidagilar kiradi:

hisobot ma'lumotlarining to'liqligini ekspertizadan o'tkazish;

hisobot ma'lumotlarining xolisligi va ishonchliligini ekspertizadan o'tkazish;

hisobotlarga kiritilgan ko'rsatkichlarning barqaror tendensiyasi va o'zaro bog'liqligini o'rganish.

11. Hisobot ma'lumotlarining to'liqligini ekspertizadan o'tkazish – bu tegishli statistika hisoboti shakli bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etishlari ko'zda tutilgan barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisobotlari mavjud bo'lishini ta'minlash.

Hisobot ma'lumotlarining to'liqligini ekspertizadan o'tkazish, davlat statistika organlari tomonidan Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 30-apreldagi 10-son qarori bilan tasdiqlangan "Ctatistika hisobotlarni yig'ish jarayonida hisobot topshiruvchi subyektlarni to'liq qamrab olinishini taminlash bo'yicha ishlarni tashkil etish reglamenti"ga muvofiq amalga oshiriladi.

12. Hisobot ma'lumotlarini yig'ish elektron shaklda, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan hisobot taqdim etuvchi yuridik shaxslar, zarur hollarda ularning alohida bo'linmalari ro'yxatiga (keyingi o'rinlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning maqsadli jamlanmasi deb ataladi) muvofiq ravishda tashkil etiladi.

13. Hududiy statistika organlari, xo'jalik yurituvchi subyektni unga tegishli hisobot shakllarini taqdim etishi belgilangani to'g'risida elektron xabar, telefon aloqasi yoki eslatma xat yuborish orqali quyidagi muddatlarda xabardor qilishlari shart:

yillik shakllar uchun – 1 fevralgacha;

boshqa shakllar (oylik, choraklik, bir martalik) uchun – xo'jalik yurituvchi subyektdan hisobot yili uchun birinchi hisobot olinishidan kamida 15 kun avval.

14. Hududiy statistika organlarining xabardor qilishlariga qo'shimcha ravishda, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ular topshirishlari kerak bo'lgan hisobotlar to'g'risidagi ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytida joylashtiriladi.

15. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning maqsadli jamlanmasini xo'jalik yurituvchi subyektlardan olingan elektron hisobotlar bilan taqqoslash, Davlat

statistika qo‘mitasi tomonidan, statistika hisoboti shaklining manzil qismida belgilangan taqdim etish muddatidan keyingi ish kunida avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

16. Hududiy statistika organlari:

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning maqsadli jamlanmasiga kiritilgan barcha faol xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan statistika hisobotlarini taqdim etilishi bo‘yicha barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishlari;

boshqa vakolatli davlat organlari bilan hamkorlikda faol bo‘lmagan tashkilotlar holatini aniqlashtirilishini va KTYaDR (Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri) bazasiga ularning faoliyat yuritmayotganligi yoki tugatilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning kiritilishini tashkil etishlari shart.

17. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faolligining tahlili va kodlashtirish bo‘yicha xatolarni aniqlash, asosiy hisobot ko‘rsatkichlarini – Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan belgilangan statistika hisobotlari shakllarining nol qiymatga teng bo‘lmagan asosiy satr va ustunlarini ekspertizadan o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Subyektlar tomonidan hisobotlarning asosiy hisobot ko‘rsatkichlari to‘ldirilmay taqdim etilgan hollarda, davlat statistika organlarining tegishli bo‘linma xodimlari qisqa muddatlarda ko‘rsatkichlarning yo‘qligi sabablarini (elektron, yozma xabar yuborish yoki telefon orqali) aniqlaydilar, zarur hollarda, soliq organlaridan xo‘jalik yurituvchi subyektning holatiga aniqlik kiritadilar, tuzatilgan hisobotni taqdim etilishi bo‘yicha choralar ko‘riladi.

18. Hisobot ma‘lumotlarining xolisligi va ishonchliligini ekspertizadan o‘tkazish hisobot ko‘rsatkichlarining maksimal to‘g‘ri to‘ldirilishiga erishish, tasodifiy va ataylab qilingan (ongli ravishda) xatolarni bartaraf qilish orqali ta‘minlanadi.

Tasodifiy xatolar – bu xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan shakllarni diqqat-e‘tiborsiz to‘ldirish oqibatida sodir etilgan xatolar (raqam boshqa ustunga yozilgan, jamlanma ko‘rsatkichlar yoyib ko‘rsatilmagan, o‘lchov birliklari shaklda belgilanganlariga mos kelmaydi, tasniflash kodlari noto‘g‘ri aniqlangan, raqamli bo‘lmagan ko‘rsatkichlardagi xatoliklar va boshqalar).

Ataylab qilingan (ongli ravishda) xatolar – xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan shaklda ongli ravishda noto‘g‘ri ma‘lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lsa (tezkor hisobot ko‘rsatkichlari yillik hisobotga nisbatan sezilarli darajada yuqori ko‘rsatilgan, moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirishga vakolatli organlar tomonidan birlamchi hisob va statistika hisoboti o‘rtasida nomuvofiqliklar aniqlangan va sh.k.).

19. Hisobot ma'lumotlarining xolisligi va ishonchliligini ekspertizadan o'tkazish jarayonida, ko'rsatkichlarni arifmetik va mantiqiy nazoratdan o'tkazish, ma'lumotlarni kodlashtirish va rekvizitlarni to'ldirishning to'g'riligini tahlil qilish, miqdoriy ko'rsatkichlarni oldingi hisobot davrlari, maqsadli jamlanmaning o'rtacha qiymatlari, idoraviy hisoblarning mavjud ma'lumotlari bilan taqqoslashlarni qo'shgan holda, olinayotgan hisobotni har tomonlama tekshirish amalga oshiriladi.

20. Olinayotgan ma'lumotlarni ekspertizadan o'tkazishni samarali tashkil etish maqsadida, statistika organining tegishli bo'linmasi boshlig'i har bir xodimga xo'jalik yurituvchi subyektlarning maqsadli jamlanmasidan xo'jalik yurituvchi subyektlar guruhini biriktiradi.

21. Biriktirilgan xodim xo'jalik yurituvchi subyektning mansabdor shaxslari bilan muntazam hamkorlik qiladi, zarur maslahatlar beradi va xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarda tasodifiy va ataylab qilingan xatoliklarni bartaraf etish uchun profilaktika xususiyatiga ega choralarni ko'radi.

22. Biriktirilgan xodim xo'jalik yurituvchi subyektdan statistika hisobotini olishda quyidagilarga majbur:

uni qayta ishlashda Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizomga qat'iy amal qilish;

elektron hisobotni belgilangan muddatidan kechiktirmasdan qayta ishlanishini ta'minlash;

statistika ma'lumotlarida xatolar aniqlangan hollarda xo'jalik yurituvchi subyektga, barcha xatolar va nomuvofiqliklar ro'yxatini va ularni tuzatish bo'yicha batafsil tavsiyalarni, to'g'rilangan ma'lumotlarni taqdim etish muddatini ko'rsatgan holda Ko'rsatma yuborish;

to'g'rilangan hisobotni xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan taqdim etilishini ta'minlash.

23. Hisobotga kiritilgan ko'rsatkichlarning barqaror tendensiyalari va o'zaro bog'liqligini o'rganish birlamchi statistika tahlilining muhim qismi hisoblanadi va hisobotlardan olingan axborotlarni tartibga solishni ta'minlaydi.

Ushbu bosqichda, to'liqligi, xolisligi va ishonchliligi tekshirilgan hisobot ma'lumotlari, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan mezonlarga muvofiq birlamchi statistika qayta ishlash usullari bo'yicha guruhlanadi va yig'ma jadvallarga kiritiladi.

Yig'ma jadvallar asosida maqsadli jamlanma ko'rsatkichlarining xususiyati, ularning bir xilligi – turli xilligi, ixchamligi – tarqoqligi va boshqa xususiyatlari haqida xulosa shakllantiriladi.

24. Birlamchi statistik qayta ishlashning asosiy usullariga – ma'lumotlarning markaziy tendensiya o'lchovini va tarqoqlik (o'zgaruvchanlik) o'lchovini hisoblash taalluqlidir.

Birlamchi statistik qayta ishlash, maqsadli jamlanmani imkon boricha juda qisqa shaklda ifodalash va quyidagi ikkita asosiy savolga javob berish imkonini beradi:

maqsadli jamlanmaga kiritilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ko'rsatkichlarning qaysi qiymatlari ko'proq xususiyatga ega;

ushbu xususiyatga ega qiymatga nisbatan ma'lumotlarning tarqoqligi kattami.

25. Markaziy tendensiya o'lchovlari – bular, qolgan ma'lumotlar ular atrofida guruhlanuvchi miqdorlardir va qandaydir tarzda jami maqsadli jamlanmani umumlashtiruvchi hisoblanadi.

Markaziy tendensiya o'lchovlari quyidagilardan iborat: o'rtacha qiymat, median, moda.

Odatda o'rtacha qiymat, markaziy tendensiyaning aniqlashda eng katta aniqlikka intilish uchun qo'llaniladi.

Median maqsadli jamlanmada o'rtacha qiymatga keskin ta'sir ko'rsatadigan "noodatiy" ma'lumotlar mavjud bo'lganda hisoblanadi.

Moda yuqori aniqlikni talab qilmaydigan, lekin markaziy tendensiyaning o'lchovlarini tezlik bilan aniqlash zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

26. Tarqoqlik (o'zgaruvchanlik) o'lchovlari – maqsadli jamlanmaning alohida qiymatlari orasidagi farqlarni belgilovchi statistika ko'rsatkichlaridir. Ular olingan ma'lumotlarning bir xillik darajasi, ularning ixchamligi, bilvosita esa ulardan kelib chiqadigan xulosalarning ishonchliligi to'g'risida baho berish imkonini beradi.

Eng ko'p ishlatiladigan ko'rsatkichlar – kenglik (ko'rsatkichlarning maksimal va minimal qiymatlari o'rtasidagi oraliq), o'rtacha og'ish, dispersiya, standart og'ish.

3-bob. Hisobot ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlil qilish samaradorligini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish

27. Hisobot ma'lumotlarining birlamchi statistika tahlilini samarali amalga oshirish hududiy statistika organlarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hududiy statistika organlarining ish rejalarida statistika hisobotlarini taqdim etish jarayonida qonunbuzarliklarning profilaktikasi bo'yicha ishlar majburiy tartibda ko'zda tutilishi shart.

28. Hududiy statistika organlari tomonidan doimiy ravishda quyidagi turdagi profilaktika ishlari amalga oshirilishi lozim:

a) statistika xodimlarining malakasini muntazam (2- yilda kamida 1 marta) oshirish, Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati boshqarmalarida, hududiy statistika boshqarmalarida ularning stajirovka o'tashlarini tashkil qilish;

b) xo'jalik yurituvchi subyektlarning mansabdor shaxslari uchun statistika hisobotlarini taqdim etish tartibi va mazmunini, statistika tasniflagichlaridan foydalanishni, Internet tarmog'i orqali davlat statistika organlari bilan elektron hamkorlik mexanizmlarini tushuntirish bo'yicha seminarlar va treninglar tashkil etish;

v) yangi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun tushuntirish ishlarini tashkil etish, statistika hisobotlarini taqdim etish, hisobot ma'lumotlarini to'ldirish, axborotlarni kodlash bo'yicha dasturiy mahsulotlarni o'zlashtirishda ko'maklashish;

g) xo'jalik yurituvchi subyektlarning avvalgi davrlar uchun hisobotlarini tizimli tahlil qilish, keyingi hisobot davri boshlanishidan oldin ko'p xatoliklarga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar uchun maslahatlar o'tkazish;

d) faoliyat ko'rsatmayotgan va faol bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektlarni aniqlash, shuningdek statistika hisobotlar ma'lumotlarini soliq va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari bilan taqqoslash maqsadida joylardagi soliq va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar bilan doimiy hamkorlik qilish;

e) hududiy statistika organlarining rasmiy saytlarida va ommaviy axborot vositalarida statistik hisobotlarni taqdim etish bo'yicha video-qo'llanmalarni va boshqa axborot materiallarini joylashtirish.

29. Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati boshqarmalari va hududiy statistika organlari boshliqlari hisobotlar ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlil qilishni ta'minlash bo'yicha ishlarning samarali tashkil etilishi uchun shaxsan javob beradilar.

30. Statistika organining biriktirilgan xodimini statistika hisobotlarini yig'ish bo'yicha faoliyati, agar unga biriktirilgan guruhdagi xo'jalik yurituvchi

subyektlarning 100 foizi tegishli davr uchun elektron hisobotlarni belgilangan muddatda topshirishgan va ulardan kamida 80 foizi taqdim etilgan hisobotlarda xatolar va nomuvofiqliklarga yo‘l qo‘ymagan bo‘lsa, samarali hisoblanadi.